

“GEOGRAFIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH”

Farg'ona viloyati Bag'dod tumani

20-sonli maktabni Geografiya fani o'qituvchisi

Ahmedova Umidaxon Ibrohimovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktab o'quvchilariga geografiya darslarida interfaol metodlardan foydalanib ularga to'g'ri ta'lim berish haqida fikr mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *interaktiv metodlar, innovatsion texnologiya, ta'lim, pedagog.*

Geografiya ta'limi deganda o'quvchilarga tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy komplekslarning tuzilishi va asosiy qonuniyatlari haqida bilimlar beradigan geografiya fanlari tizimiga aytiladi. Geografiya ta'limi metodikasi esa maktablarda va kasb-xunar kollejlarda tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya va boshqa maxsus geografiya fanlarini o'qitish jarayonini o'rganadigan va pedagogika fanlari tizimiga kiradigan fandır. Geografiya ta'limi metodikasi umumiy didaktika va tarbiya nazariyasi bilan chambarchas bog'langan. Didaktika fani ta'lim berish va tarbiya jarayonini umumiy qonuniyatlarini, ta'lim mazmunini tadqiq qiladigan nazariy fandır. Didaktika fani aniq o'quv fanlarini o'qitish metodikasi bilan shug'ullanmaydi. Ayni vaqtda har bir o'quv fani o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning ayrimlarini maqsadi nazariy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish (geografiya, geografiya, kimyo), ayrimlari faqat ko'nikmalarni (chet tillar), boshqalari esa borliqqa estetik munosabatda bo'lishini shakllantiradi (tasviriy san'at). Shuning uchun alohida fanlarni o'qitish metodikasi bilan hususiy didaktika fanlari shug'ullanadi. Mazkur fanlar qatoriga «Geografiya o'qitish metodikasi» fani ham kiradi. Geografiya o'qitish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari mavjud.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, extibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri shu

vaqtgacha anxanaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilganligidir. Zamonaviy texnologiyalar esa ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlari, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

SHuning uchun umumiy o'rta taxlim maktablarida o'quvchilarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini taxminlashda zamonaviy o'qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. "Innovatsiya" so'zi inglizcha "innovation" so'zidan olingan bo'lib, yangilik kiritish, yangilik degan maxnolarni anglatadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash demakdir. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

o'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini taxminlanishi;

o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

hamisha pedagog va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq. O'qitish jarayonida qo'yilgan maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir taxlim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, ularning har ikkalasi ham ijobiy natijaga

erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa chiqara olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esalarga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsagina samara berishi mumkin. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, yaxni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda maxlum bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va o'quvchining hakorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, yaxni texnologiyaga bog'liq. O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikda maqsaddan natijaga erishish uchun qanday texnologiyani tanlashlari ularning ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan. Bunda o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim filgm, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bularning qay birini tanlash o'qituvchi va o'quvchiga bog'liq. SHu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirib olish zarur. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, o'qitishning texnik vositalarini, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishni hisobga olsagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchi tomonidan bo'lajak darsning texnologik kartasini tuzib olish katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik kartasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan fanning xususiyatidan, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik kartani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psihologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar va usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsning rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik kartasiga bog'liq.

Darsning texnologik kartasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik karta qanday tuzilgan bo'lmasin, unda jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik kartada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi. «Geografik xaritalar va ularning turlari. Atlaslar, globuslar» mavzusi bo'yicha o'tkaziladigan darsning oldindan loyihalashtirilgan texnologik kartasini misol tariqasida keltirilmoqda. O'qituvchi tomonidan har bir mavzu, har bir dars bo'yicha tuzilgan shu kabi texnologik karta unga o'z fani, predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondoshishga, tushunishga (bir chorak, bir o'quv yili bo'yicha), yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishilgan natijasigacha ko'ra olishga yordam beradi. Ayniqsa, texnologik kartani o'quvchining imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzilishi, uni shaxs sifatida taxlimning markaziga olib chiqishga olib keladi. Bu esa o'qitish samaradorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. «Aqliy xujum» Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va goyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni xosil qilishga ragbatlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tugiladi. «Aqliy xujum» metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarini aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil bo'lgan goyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajabov Furkat Turakulovich, Sattarov Abdisamat Umirkulovich (2020) *FARMS OF UZBEKISTAN: DEVELOPMENT, SPECIALIZATION, GEOGRAPHY. Journal of Critical Reviews*, 7 (6), 1189-1196.

2. Radjabov, F. (2020). *Describe the Individual Food Industry Contents and their Role in the Delivery of Agricultural Products. International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 19(1), 292-294.

3. Туракулович, РФ (2020). *Динамика и региональные особенности сельскохозяйственного производства. В Республике Узбекистан. Международный журнал психосоциальной реабилитации*, 24 (2).